

INTERNET MULOQOTIDA TURLI DISKURSLARNING KOMPYUTER LINGVISTIK TALQINI

Miralimova Shahzoda Hasanboyevna

Andijon davlat chet tillari instituti

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22672523>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Internet muloqoti zamonaviy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Tarmoqdagi muloqot og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos diskurs turini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasi nuqtai nazaridan ushbu diskurslarni tahlil qilish, avtomatik qayta ishlash hamda matnli ma'lumotlarni modellashtirish alohida yondashuvni talab qiladi.

Kalit so'zlar:

Internet diskursi, kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, sentiment-tahlil, muloqot va matn, avtomatik modellashtirish.

Kirish.

Insonlar muayyan bir jamiyat ichida yashaydilar va bir-birlari bilan doimiy ravishda muloqotda bo'ladilar. Muloqot jarayonida til orqali o'zaro munosabatga kirishadilar, axborot almashadilar. Muloqot – keng qamrovli ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, shaxslararo axborot va fikr almashish, kundalik maishiy yoki shaxs va muayyan guruh o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. XXI asrga kelib, har bir hodisadagi inson fenomenining o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan antropotsentrik yo'nalishning vujudga kelishi tufayli muloqot tushunchasi bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish mezonlari ham yangilana boshladi. Xossatan, muloqotning yetakchi vositasi bo'lgan til va nutq tushunchalarining ichki va tashqi xususiyatlarini o'rganishda ham tilshunoslikning falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya, kognitivistika, kulturologiya kabi qator sohalar bilan aloqadorligi kuchaydi va fanlar kesimidagi sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika kabi yo'nalishlar shakllandii. Tez fursatda til tashuvchilari orasida ommalashib, semiotik siljish orqali turli ma'no variantlari shakllanishiga hissa qo'shmoqda.

Java taxallusini qo'llagan havaskor qo'shiqchi "Dunyo sening tog'angmas" nomli kichik hajmli klip-qo'shig'ini ijtimoiy tarmoqning "YouTube" kanaliga joyladi. Mediamatnning noan'anaviy, g'ayritabiiy dizayni, ya'ni ijrochining yuz-ko'zini doka bilan o'rab olgan holda kuylashi favqulodda tomoshabinlar e'tiborini tortdi va u qadar mazmunli bo'lmagan qo'shiq matnining, xususan, "Dunyo sening tog'angmas" jumlasining tez ommalashuviga sabab bo'ldi.

"Feysbuk" foydalanuvchilaridan birining yozishicha, ijroning kuzatuvchilari uch haftada 5 million kishidan ortgan. "Sizlarni bilm adimu, ertadan bolalarimga nasihatni huddi shunga o'xshash qo'shiq bilan boshlab ko'rmoqchiman! YO ostidan, yo ustidan. Nasihatimni olishsa o'zlariga, olishmasa yutubga qo'yvoraman, oqibatda mashhur bo'lganim qoladi, 🤔🤔🤔🤔" – deya kinoya qiladi u. Retsipiyehtlar ushbu postga turlicha talqindagi fikrlarini yozib qoldirganlar:

Nonvoy seni tog'angmas (dunyo so'ziga taqlidan)

Dunyo sani ammanngmas (tog'a so'ziga taqlidan)

Avtohalokatdan keyin aytilganmi bu qo'shiq? (ijrochining yuziga doka bog'langaniga ishora)

Boshqa bir foydalanuvchi "Tag'o taym" nomi bilan qatnashuvchi blogerning sahifasiga shunday tabrik yo'llagan: *"Bugun ishongan tog'i(tog'a)mizning tug'ilgan kuni. Chin qalbdan tabriklayman. Bugun ertalabdan boshlab O'sha – mashhurlashayotgan qo'shiqdagi "Dunyo seni tog'angmas" degan satrlarni "Tog'am mening dunyom"dir deya xirgoyi qilayapman."* ("Feysbuk"dan) Bunda so'z o'yini tarzida gap bo'laklari o'rni almashtirilgan: *"Dunyo sening tog'angmas" – "Tog'am mening dunyom"dir.*

"Dunyo sening tog'angmas" jumlasini shu qadar ommalashdiki, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi reklama matnlarida yoki bloglarda ham faol qo'llana boshladi.

1. Institutsional diskurs – muayyan ijtimoiy institutlar (davlat, ta'lim muassasalari, kompaniyalar, siyosiy partiyalar, bank, sog'liqni saqlash tizimi va hokazo) yoki ularning vakillari tomonidan o'z rasmiy maqsadlari, vakolatlari va qoidalari doirasida olib boriladigan muloqotdir. Internetda bu, asosan, rasmiy veb-saytlar, idoralarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida beriladigan rasmiy xabarlar, e'lonlar, deklaratsiyalar orqali namoyon bo'ladi.

Institutsional diskurs internet muloqotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos funksional vazifalarni bajarishga qaratiladi:

informativ vazifa: xabar berish, yangilik tarqatish;

kommunikativ vazifa: auditoriya bilan muloqot;

regulyativ vazifa: tartib-qoidalarni e'lon qilish, xizmatdan foydalanish qoidalarini belgilash;

persuaziv (ishontirish) vazifasi: ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni shakllantirish va muayyan voqelikka ishontirish;

ijtimoiy-madaniy vazifa: milliy-madaniy qadriyatlarga hurmatni saqlash va ularni rivojlantirish, yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish;

Institutsional diskursning asosiy xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

me'yor va standartlarga tayanadi;

aniq maqsadga qaratilgan: **axborot yoki ko'rsatma berish, tushuntirish, rasmiy xabar;**

ishtirokchilar roli aniq belgilangan: **"muassasa → foydalanuvchi", "mutaxassis → auditoriya";**

til uslubi neytral va rasmiy: atamalar, rasmiy iboralar ko'p qo'llanadi.

Uslub, til va format, ko'pincha, rasmiy, standart va konvensional bo'ladi. Jargonlar va norasmiy ifodalar kam uchraydi. Doimo muayyan maqsadga (ma'lumot berish, xizmat ko'rsatish, siyosat yuritish, aholini xabardor qilish, brendni mustahkamlash) erishishga qaratilgan bo'ladi.

Diskurs egasi o'z mavqei va vakolatidan kelib chiqqan holda, ma'lumot berish va qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi. Rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar, ko'pincha, ishonchli va tekshirilgan deb hisoblanadi. Odatda, axborot yuqoridan pastga, ya'ni institutdan aholiga yo'naltiriladi. Jamoatchilik bilan muloqot imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha cheklangan. Diskursni yaratuvchilar uning mazmuni va tarqalishini nazorat qiladilar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Краткий психологический словарь. – М., 1985. – С. 153.
2. Кастельс М. Галактика Интернет: размышления об Интернете, бизнесе и обществе. — Екатеринбург: У-Фактория, 2004. – 328 с.
3. Шуйская Ю.В., Кузнецов Н.В. Лингвистические особенности дискурса интернет-чатов // Научное обозрение: гуманитарные исследования. – 2016. – № 8. – С.102.
4. Горошко Е.И. Лингвистика Интернета: формирование дисциплинарной парадигмы // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе. – Орел: Карпуш, 2007. Вып. 5. – С. 223-237.
5. Галичкина Е.И. Характеристика компьютерного дискурса // Вестник ОГУ, №10, 2004. – С. 55-59.
6. Асмус Н.Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства: дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология:

Лингвокультурологический аспект [Электронный ресурс]. www.philology.ru/linguistics1/vinogradova (murojaat sanasi 20.03.2023) Бергельсон М.Б. Языковые аспекты виртуальной коммуникации // Вестник МГУ <http://www.ffl.msu.ru/staff/mbergelson> (murojaat sanasi 20.03.2023) Горошко Е.И. Современная интернет-коммуникация: структура и основные параметры // Интернет-коммуникация как новая речевая формация : колл. монография / науч. ред. Т. Н. Колокольцева, О. В. Лутовинова. М., 2012. – С. 9-52. Холод А.Л. Понятие Интернет-коммуникации // <https://topuch.com/a-l-holod-minsk> (murojaat sanasi 20.03.2023). 7. Ахренова Н.А. Теоретические основы Интернет-лингвистики // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. № 10 (28). – С. 22-26.

Annotation.

Internet communication is one of the most rapidly developing fields of modern linguistics and computational linguistics. Online communication constitutes a unique type of discourse that combines the features of both spoken and written speech. Analyzing, automatically processing, and modeling textual data of these discourses from the perspective of computational linguistics require a special approach.

Keywords:

Internet discourse, computational linguistics, natural language processing, sentiment analysis, communication and text, automatic modeling.